Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.433
ORCID: 0009-0008-5119-109F

TEMURIYLAR DAVLAT MUZEYI FAOLIYATI TARIXI

Kabulov Babamurot Toshboltayevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti
E-pochta: bqobilov@gmail.com

Annotatsiya: Maqola 1996-yil mamlakatimizda "Amir Temur" yili nomini berilishi, Samarqand, Shaxrisabz va Toshkent shaharlarida buyuk sarkardaga xaykallar o'rnatildi. Bundan ko'zlangan maqsad avvalo tarixiy qahramonga bo'lgan hurmat e'tiborni bildiradi. Mustaqillik yillarida davlatimiz tomonidan milliy o'zlikni anglash tarixiy shxslarning nomini abadiylashtirish maqsadida Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil etilishi va uning ekspozitsiyasining joylashuvi va faoliyati tarixiga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi Amir Temur va temuriylar davrida ilm – fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ'ib qilish, chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an`analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy istiqlol g'oyasini singdirish. Amir Temur hazratlari xalqimizning, millatimizning badiiy fahri va g'ururidir. Shu boisdan ham muarrixlar XIV asrni sohibqiron Amir Temur asri yoki Vatanimiz tarixidagi buyuk yuksalish – ikkinchi Renessans davri deb bejiz aytishmagan. Darhaqiqat bu, davrda sohibqiron bunyodkorlikni qadrlaganligi tufayli ancha ravnaq topgan edi.

Kalit so'zlar: Amir Temur, moddiy madaniyat, muzey, qo'lyozmalar, ekspozitsiya.

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ТЕМУРЯ

Аннотация: В статье говорится, что 1996 год был объявлен в нашей стране Годом Амира Темура, а в городах Самарканде, Шахрисабзе и Ташкенте были воздвигнуты памятники великому полководцу. Целью является прежде всего проявление уважения к историческому герою. Создание Государственного музея истории Тимуридов, размещение его экспозиции и история его деятельности посвящены реализации национальной идентичности нашим государством в годы независимости, увековечению имен исторических деятелей. Целью исследования является правдивое отражение и широкая пропаганда высокого уровня развития науки, образования и культуры в эпоху Амира Темура и Темуридов, воспитание подрастающего поколения в духе патриотизма и привитие идеи национальной независимости на основе наших исторических достижений и традиций, проникнутых глубоким гуманистическим духом. Амир Темур – художественная гордость и честь нашего народа и нации. Вот почему историки не называют XIV век веком великого Амира Темура или великим подъемом в истории нашей Родины – эпохой второго Возрождения. На самом деле, в этот период он получил значительное развитие благодаря тому, что владелец ценил креативность.

Ключевые слова: Амир Темур, материальная культура, музей, рукописи, экспозиция.

Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

HISTORY OF THE ACTIVITIES OF THE TEMURIAN STATE MUSEUM

Abstract: The article is devoted to the fact that 1996 was named the year of "Amir Temur" in our country, and statues of the great commander were erected in the cities of Samarkand, Shakhrisabz and Tashkent. The intended goal is, first of all, respect for the historical hero. In the years of independence, the awareness of national identity by our state, in order to perpetuate the names of historical figures, is devoted to the history of the organization of the State Museum of the History of the Timurids, the location of its exposition and its activities. The purpose of the research is to truthfully reflect and widely promote the high level of development of science, education and culture during the era of Amir Temur and the Timurids, to educate the younger generation in the spirit of patriotism and to instill the idea of national independence on the basis of our historical achievements and traditions imbued with a deep humanistic spirit. His Majesty Amir Temur is the artistic pride and honor of our people and nation. That is why historians have not without reason called the 14th century the century of the great Amir Temur or the great upsurge in the history of our Motherland – the second Renaissance. Indeed, this era greatly flourished due to the appreciation of creativity by the great Amir.

Key words: Amir Temur, material culture, museum, manuscripts, exposition.

KIRISH. O'zbekiston mustaqillikka erishgach keyingi tarixiy davrlar davomida jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ona yurtimiz va uning o'tmishiga qiziqish yanada ortdi, ayniqsa, uning moddiy madaniyati bilan bog'liq bo'lgan muammolarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi.

Davlatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridanoq asrlar davomida ajdodlarimiz yaratgan ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklashga katta ahamiyat berildi. O'zbekiston xalqi o'z tarixini tiklash, haqsiz unutilgan nomlarni, jahon rivojlanishida muhim rol o'ynagan tarixiy shaxslarni yorug'likka chiqarish imkoniyatiga ega bo'ldi. Amir Temur markazlashgan davlatga asos solib, uning kuch-qudratini har tamonlama mustahkamlab va rivojlantirib, shon-shuhratini butun jahonga yoydi, buyuk saltanatning hukmdori sifatida millatlar va xalqlarni birlashtirdi. Uning davrida madaniyat, ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa, she'riyat yuqori cho'qqilarga ko'tarildi. Bir so'z bilan aytganda Temuriylar davri renessansiga asos solindi[1]. Shunga asosan Prezidentimizning farmoni bilan 1996-yil "Amir Temur" yili deb e'lon qilindi va uning 660 yillik yubileyi respublikamizda keng nishonlandi. 1996-yilning 14 martida esa Temuriylar tarixi davlat muzeyi binosini barpo etish to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori e'lon qilindi.

Prezidentimizning tashabbuslari bilan muzey binosi qisqa vaqt ichida bitkazilib, 1996-yilning 18-oktyabridan foydalanishga topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida" PF-1913-son Farmoni, 2008-yil 12-sentabrda O'zbekiston Respublikasining Muzeylar to'g'risidagi O'RQ-177-son Qonuni[2] qabul qilinib 8 bob 36 moddadan iborat. Keyingi yillarda muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-dekabrda "2017 – 2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha komleks chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi 975-son qarori muhim qonun hujjati bo'ldi[3].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida mustaqillik yillarida mamlakatimizda Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyati tarixini ilmiy manbalar asosida yoritib berishdan iborat.

Mustaqillik tufayli respublikamizda muzeylarga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Xususan, keyingi 10 yil ichida Davlat qarmog'idagi muzeylar soni 140 tani tashkil etdi. Shulardan tarix muzeylari 75 ta, O'lkashunoslik muzeylari 23 ta, Badiiy San'at Koshonalari 10 ta, memorial muassasa 20 ta, adabiyot muzeylari 8 ta, tabiat muzeylari 4 tadan iborat. Ayni paytda bularda 1 million 600 mingdan ortiq eksponatlar mavjud.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi faoliyatini o'rganishdan asosiy maqsad Amir Temur va temuriylar davrida ilm - fan, maorif va madaniyatning yuksak darajadagi taraqqiyotini haqqoniy aks ettirish va keng targ'ib qilish, chuqur insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan tarixiy yutuqlarimiz va an'analarimiz asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va milliy istiqlol g'oyasini singdirish.

O'rganishda asosiy vazifa:

- tarixiy, madaniy, ma'rifiy fanlarning etakchi yo'nalishlari bo'yicha ilmiy – amaliy tadqiqotlar olib borish; respublika va xorijiy mamlakatlar jamoatchiligini temuriylar davri tarixi bilan tanishtirish;
- Temuriylar tarixi davriga oid manbalarni to'plash bo'yicha respublika va chet ellarda izlanish ishlarini olib borish; Amir Temur va temuriylarning jahon fani madaniyatiga qo'shgan ulkan hissasini ko'rsatib beradigan asl hujjatlar, qo'lyozmalar, moddiy-ma'naviy yodgorlik va topilmalar asosida o'zbek xalqi tarixini yorituvchi doimiy hamda vaqtinchalik ekspozitsiya va ko'chma ko'rgazmalar tashkil etish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Muzey binosi mustaqillik davrida bunyod etilgan eng noyob inshootlardan biri bo'lib, zamonaviy me'morchilik talablariga to'la javob beradi. Binoning balandligi 31 metr, ichki diametri 50, tashqi diametri esa 70 metr. Muzey gumbazi mohir usta naqqoshlar tomonidan chizilgan bo'lib, naqshlarga oltin suvi yuritilgan.

Zumrad deb nomlangan qandil og'irligi ikki tonnadan ortiq, uzunligi 8 metr, diametri 6 metr, 500 ta yoritgichi bor. Muzey uch qavatdan iborat bo'lib, birinchi qavatida xizmatchilar uchun xonalar, 2-3 qavatlarida muzey ekspozitsiyasi joylashgan.

Uch qavatli binoning 1-qavatida xazinaxonalar, kutubxona, kichik konferensiya zali, do'konlar, kassa, garderob, bo'limlar, ma'muriyat xonalari, texnik vosita xonalari va boshqalar joylashgan. 2-qavatida ekspozitsiya boshlanadi.

Muzey ekspozitsiyasi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan tasdiqlangan. Ekspozitsiyada tariximizning asoslari qadim zamonlarga borib taqalishi hikoya qilinadi. Ikkinchi qavatdagi markaziy devordan Usto birlashmasi qoshidagi Sanoyi nafisa guruhi miniatyurachi rassomlarining (S.Qoraboev, G'.Kamolov, X.Nazirov, T.Boltaboev) Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor deb nomlangan tasviriy san'at asari joy olgan.

Asar uch qismdan iborat:

tug'ilish;

yuksalish;

faxrlanish.

Ushbu asar markaziy va qoliplovchi kompozitsiyalardan iborat. Qoliplovchi kompozitsiyaning eng yuqorisida oltin harflar bilan Sohibqiron bobomizning mashxur shiori bitilgan "Rosti-rusti" (To'g'rilik – najotdir). Shiorning ikki tarafida quyosh va oy tasviri tushirilgan. Quyosh qudrat ramzi bo'lsa, oy to'linlik-yetuklik ramzidir. Quyoshning pastida farishta oq mato ustida adolat shamshirini keltirmoqda.To'lin oy pastidagi farishta esa yashil mato ustida muqaddas kitob-Qur'oni Karimni keltirmoqda. Bu

ramzlardan xulosa shuki, bobomiz Amir Temur Qur'oni Karim oyatlariga, binobarin, qonun-qoidalariga amal qilib, ilmu tafakkur va adolat shamshiriga tayanib qudratli davlat barpo etgan va uni boshqargan. Asarning quyi qismida esa bepoyon Turonzamin manzarasini aks ettiruvchi kichik bir lavha tasvirlangan. Markaziy qismining tevarak atrofiga kufiy xatida Qur'n oyatlari bitilgan, xat atrofi nozik islimiy naqshlar bilan ziynatlangan.Markaziy kompozitsiyaning o'rtasida benazir davlat arbobi Amir Temurning taxtda o'tirgan qiyofasi o'z ifodasini topgan. O'ng tarafida – vazirlar va ulamolar, munajjim va muarrixlar, chap tarafida esa harbiy a'yonlar – Amirulumaro va Bahodir tasvirlangan. Ushbu davra kengashi – mashvaratda Sohibqiron teran o'y-fikrga tolgan holatda ko'rsatilgan. Taxt ortidagi fonda bobomiz bunyod ettirgan buyuk me'moriy obidalar – Oqsaroy, Ahmad Yassaviy majmui, Bibixonim masjidi tasviri bilan birga qadimiy Shohi Zinda majmuasi ko'rinishlaridan lavha kiritilgan. Kompozitsiyadagi ikki ustun va sher tasviri buyuk davlatning mahobatli tayanchlari va qudratli ramzini ifodalaydi. Kompozitsiyaning quyirog'ida Temuriylar sulolasining keyingi davr namoyandalari Amir Temur bobolarining bebaho merosi – "Tuzuklar"ni mutolaa etayotgan manzara aks ettirilgan. Bular Amir Temurning avlodlari (chapdan) Muhammad Sulton (Jahongirning o'g'li, 1383-1403), Muhammad Tarag'ay Ulug'bek (1394-1449), Husayn Boyqaro (1438-1507), Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530). Markaziy qismning chap burchagida Sohibqiron Turkistonda barpo etgan Ahmad Yassaviy maqbarasi qozonxonasining eshiklari tasvirlangan. Unda eshikdan chiqib kelayotgan sufiy va qalandar qiyofalari ham aks ettirilgan. O'ng tarafda esa naqshinkor ustunga suyangan sharq go'zali tasvirlangan[4].

Uchinchi qism. – **Faxrlanish**.

U "Tug'ilish" va "Yuksalish" asarining davomi bo'lib, Sohibqiron bobomizdan qolgan me'rosning cheksiz faxr-u iftixor tuyg'ulari bilan avlodlardan-avlodlarga o'tib kelayotgani haqidagi g'oyani ifodalaydi. Asar markazida o'tgan umridan rozi holda dunyoga kelib qilgan ishlaridan, ajdod avlodidan ko'ngli faxr va g'urur hislariga to'lib turgan nuroniy mo'ysafid oq libosda tasvirlangan. Oq rangning falsafiy ma'nosi poklik, soflik, etuklik hamda fanodan baqoga qaytish kabi tushunchalardan iborat.

Bobomiz o'z umri davomida to'plagan ma'naviy bisoti hamda umuminsoniy qadriyatlar hazinasini hayotga endi qadam qo'yayotgan yosh avlodga faxr bilan topshirmoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, bu asar O'zbekiston tasviriy san'atida yangi janrdir. Sababi, aslida miniatyura san'ati juda kichik hajmdagi tasvirlarda aks ettirilgan. Toshkentlik rassomlar guruhi xalqqa Temuriylar davrida gullab yashnagan bu san'at turining eng yaxshi namunalarini mahobatli shaklda etkazib berishga harakat qilishgan. Shu asosda ajoyib san'at asari yaratilgan. Ushbu mahobatli miniatyura asarini chizgan ustalar Behzod nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lishgan.

3-qavatda asosiy ekspozitsiya o'rin olgan bo'lib, unda o'zbek xalqi davlatchilik tarixining rivojlanish bosqichlari haqida hikoya qiluvchi sopol va jez buyumlar (Sopollitepa), Kushonlar davri noyob yodgorliklari, Qoraxoniylar davri tangalari va badiiy hunarmandchilik buyumlari kabi asori-atiqalarimiz o'z ifodasini topgan. Ekspozitsiyaning davomida Amir Temur va Temuriylar tarixi bilan bog'liq eksponatlar (me'moriy obidalarning maketi, kulolchilik, misgarlik, zargarlik buyumlari, qo'lyozmalar), rangtasvir asarlari bilan tanishish mumkin. Ekspozitsiyada doimiy ravishda Temuriylar davri tarixidan ma'lumot beruvchi hujjatli filimlar monitorlar (2x2,5 m) orqali namoyish etiladi[5].

Bugungi kunda muzey fondidagi ashyolar 3500 dan ortiqdir. Muzey ekspozitsiyasidan 1700 dan ortiq eksponat

o‘rin olgan. Hozirda muzey ekspozitsiyasida namoyish etilayotgan va fondlarida saqlanayotgan eksponatlar Temuriylar tarixidan so‘zlovchi noyob yodgorliklardir. Bular – Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid noyob qo‘lyozmalar, yozishmalar, kumush va mis tangalar, sopol va mis buyumlar, me’moriy qoplamalar, XIV-XXI asrlarga oid kitoblar, tangalar, etnografik buyumlar va h.k.

Muzeyda temuriylar davri amaliy san’atidan hikoya qiluvchi ko‘pgina asoriatiqalar saqlanadi:

- XIV- XV asrlarga oid bo‘lgan jez idishlar, islimiy bezakli sopol idishlar, qalamdonlar, lavhlar va boshqa yog‘och o‘ymakorlik namunalari;
- imorat qoplamalari: koshin va parchinlar;
- Temuriylar davri mis, kumush tangalari;
- Qo‘lyozmalar: Sharafiddin Ali Yazdiyning Zafarnoma asari, Temur tuzuklari, Ibn Arabshohning Amir Temur tarixii asari, Abdurahmon Jomiyning Haft Afrang asari, Alisher Navoiyning Xamsa asari.
- astronomiyaga oid asboblar;
- Shohruhiyadan topilgan XIV-XV asrlarga oid turli asori-atiqalar;
- Temuriylar davri harbiy kiyimlari va qurollari: nayza, kamon, sadoq, nayza va o‘q-yoy uchlari, sovut, qalqon, dubulg‘a va boshqalar;
- Samarqandda 1941-yil Go‘ri Amir maqbarasidigi qabrlar ochilishida topilgan noyob topilmalar:
- Amir Temurning qoshi, Mirzo Ulug‘bekning kiyimi qoldiqlari, Bibixonim munchog‘i;
- Gavharshodbegim, Mironshohlarning uzuk-muhrlari nusxalari.

2011-yilda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi va Temuriylar tarixi davlat muzeyi tashkil etilganligining 15 yilligi munosabati bilan muzeyda “Jahon xazinalaridagi Temuriylarga oid javohirlar”[6] ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ko‘rgazmani tashkil etishdan maqsad, xalqimizni, ayniqsa yoshlarni chet muzey va kollektsiyalarida saqlanayotgan Temuriylarga oid noyob osoriatiqalar bilan tanishtirishdir.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasidan Amir Temurning shajarasim, hokimiyat tepasiga kelishi, harbiy yurishlari, diplomatik munosobatlari, savdo-sotiq, hunarmandchilik, obodonchilik, ilm-fanni rivojlantirish va mashhur Temuriy xukumdorlar haqida hikoya qiluvchi eksponatlar (xaritalar, qurol aslohalar, kumush va mis tangalar, minatyralar, noyob qo‘lyozmalar, kulolchilik, misgarlik, zargarlik buyumlari) o‘rin olgan[1].

Muzey ekspozitsiyasining asosiy qismi 3-qavatda joylashgan bo‘lib, “Kimki o‘zbek nomini, o‘zbek millatining kuchqudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo‘shgan hissasini, shu asosida kelajakka ishonchini anglamoqchi bo‘lsa AmirTemur siymosini eslashi kerak – degan so‘zlari bilan boshlanadi.

XULOSA. Mustaqillik unutilgan tariximiz, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy yodgorliklarni har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Chunonchi, O‘zbekistonda muzey ishining jadal rivojlanishiga zamin yaratildi. Sohaga katta e’tibor qaratildi, talaygina yangi muzeylar bunyod etildi, mavjudlaridagi ekspozitsiya zallari yangilandi. Xususan, “Sharq renessansi” deb nom olgan temuriylar davriga e’tibor alohida ahamiyat kasb etdi. Fikrimiz dalili sifatida Temuriylar tarixi davlat muzeyini keltirish mumkin. Muzeyning qurilishi, ekspozitsiya zallari, texnik shartsharoitlari dunyo talablariga javob bera oladi. Ajdodlarimizdan bizgacha meros bo‘lib kelgan, turli davr sahifalaridan hikoya qiluvchi osori atiqalar yurtimiz muzeylari ekspozitsiyalarida hamda xorijiy muzeylarda saqlanib kelmoqda. Xususan, Amir Temur va temuriylar davri madaniyati aks ettirilgan ashyolar xorijning yirik muzeylari zallaridan o‘rin egallagan.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR

1. Ҳабибуллаев Н. Темурийлар тарихи давлат музейи. Ўзбекситон овози// . 2011. 9 август.

2. https://lex.uz/docs/-1391728.

3. https://www.lex.uz/uz/docs/3451889?ONDATE=28.03.2020&ONDATE2=09.06.2022&action=compare

4. Массон М.Е. О происхождении мавзолея Туркан-ока в Самарканде при Темуре и Темуридах. Очерк. П., 1933, с 9.

5. Жонибеков З., Мирсоатов О. Халқимиз буюк қадриятларининг кўзгуси. Маърифат. 2013. 9 апрел.

6. Қурбонова Д. Жаҳон хазиналаридаги темурийларга оид жавоҳирлар. Тошкент. 2011. Б. 3.